

(COVID-19 inqiroziga qarshi kurashish) Har bir shaxs o'zining kundalik hayotida karantin sharoitida amal qilishi lozim bo'lган 5ta asosiy qoidalar (2020.4.13)

Uzoq muddatli COVID-19 pandemiyasi tufayli karantin davridagi kundalik hayotdagi o'zgarish.

Ma'lum bir darajadagi odatiy faoliyatni amalga oshirgan holda, yuqumli kasallikning oldini olish, tarqalishini to'xtatish kabi harakatlar birqalikda bajariladigan "karantin sharoitida" amal qilinishi lozim bo'lган 5ta qoida haqida ma'lumot beramiz.

Karantin sharoitidagi 5ta asosiy qoida

(1-qoida) Agar o'zingizni yomon his qilsangiz, 3-4kun davomida uyda dam oling.

Sababi: COVID-19 kasalligining boshlang'ich va yengil belgilari kuzatilgan vaqtida ham ushbu kasallikni osonlik bilan boshqalarga yuqtirish mumkin. Kasallik belgilari kuzatilganda boshqalar bilan aloqa qilish kamaytirilsa, COVID-19 kasalligining tarqalish ehtimolini qisqartirish mumkin.

- ① Agar respirator kasalligi belgilari kuzatilsa, 3-4kun davomida uyda qolib dam oling.
 - Respirator kasalliklarning belgilari: Isitma yoki yo'tal, balg'am ajralishi, mushaklardagi og'riq, tumov kabilar
- ② Kasallik belgilari kuzatilganda atrofdagi odamlar bilan ko'rishishdan tiyilish, uyda birqalikda yashovchi shaxslar bo'lsa, ularning doimo niqob taqib yurishlari (qariyalar va surunkali kasallikka chalingan shaxslar bilan muloqot qilish, ovqatlanish kabi o'zaro aloqada bo'ladigan harakatlardan tiyilish) talab etiladi.
- ③ Dam olganingizdan so'ng kasallik belgilari yo'qolsa, odatiy turmush tarziga qayting. Uyda dam olganingizda tana harorati davomiy tarzda 38 darajadan yuqori bo'lganda yoki kasallik belgilari kuchayganda qo'ng'iroq markazi (Δ 1339, Δ Hudud kodi+120) yoki kasalxonaga murojaat qiling.
- ④ Kasalxona, dorixona, kundalik zaruriy mahsulotlarni xarid qilish kabi zaruriyatlar uchun tashqariga chiqqaningizda niqob taqib yuring.
- ⑤ Korxona va ish beruvchilar kasallik belgilari mavjud bo'lган xodimlarini ishga chiqmasdan uyda qolishlariga ko'maklashishlari lozim.

(2-qoida) Insonlar bilan muloqot qilganda 2ta qo'l uzunligida oraliq masofa saqlang

Sababi: COVID-19 kasalligi asosan so'lak tomchilari orqali tarqaladi. Insonlar o'rtasidagi masofani o'zaro 2metr uzunlikda saqlashsa, so'zlashuv, yo'tal, aksirish paytida so'lak tomchilarini tashqariga tarqalish ehtimoli kamayib, koronavirus bilan kasallananish xavfi qisqaradi.

- ① Yopiq va odamlar ko'p bo'lgan joylarga bormaslikka harakat qiling.
- ② Kundalik turmushda odamlar bilan 2metr, eng kamida 1metrdan ortiq uzunlikda o'zaro masofa saqlang.
- ③ Boshqalar bilan yetarli masofa saqlashni inobatga olgan holda o'tirganingizda mos o'ringa joylashing.
- ④ Ko'plab insonlar to'planganida 2metr uzunlikdagi oraliq masofani saqlash uchun yetarlicha joyni kengaytiring yoki vaqtini moslang.
- ⑤ Qo'l berib ko'rishish yoki quchoqlashishdan tiyiling.

(3-qoida) Qo'llaringizni tez-tez va yaxshilab yuvib, yo'talganingizda yengingiz bilan to'sing.

Sababi: Ifloslangan qo'l orqali viruslarning inson tanasiga kirishiga to'sqinlik qilib, yo'talish odobiga rioya qilgan holda so'lak tomchilari orqali tarqalish ehtimoli kamayadi.

- ① Ovqatlanishdan oldin va keyin, hojatxonadan foydalanilganda, tashqariga chiqqanda, burunni tozalaganda yoki yo'tal, aksirgandan so'ng oqar suv vasovun orqali 30soniyadan ortiq vaqt davomida yoki dezinfeksiyalovchi vositalar bilan qo'llaringizni yoving.
- ② Yuvalmagan qo'llar bilan ko'zingiz, burningiz, og'zingizni ushlamang.
- ③ Shaxsiy va jamoat joylarida qo'l yuvish uchun rakovina va sovunni tayyorlab qo'yish, joylarda qo'l uchun antiseptik vositalarni qo'yish, 2soatda bir marta qo'llarni yuvish talab etiladi.
- ④ Yo'talganingizda yoki aksirganingizda salfetka, ro'molcha, kiyimningizning yengi bilan og'zingizni to'sing.
- ⑤ Isitma, yo'tal, balg'am ajralishi, mushaklarda og'riq, tumov kabi respirator kasalliklarining belgilari kuzatilganda yoki o'zingizni yomon his qilganingizda boshqalar uchun niqob taqib yuring.

(4-qoida) Har kuni 2marotabidan ortiq xonani shamollating, vaqtiga vaqtiga bilan dezinfeksiya ishlarini amalga oshiring.

Sababi: Xonani shamollatish orqali havoda ehtimoliy mavjud bo'ladigan koronaviruslarni

o'zida mujassam etgan so'lak tomchilarining konsentratsiyalashuvi kamaytirilib, so'lak tomchilari yopishishi mumkin bo'lgan joylar dezinfeksiya qilinsa, qo'l orqali COVID-19 kabi viruslarning yuqish ehtimoli kamayashi mumkin.

① Xonani tabiiy holda shamollatish imkonи bo'lganda derazalarni ochiq holatda saqlang. Tashqaridan chang zarrachalari xona ichkarisiga kirish ehtimoli bo'lgan holatda esa eng kamida har kuni 2marta 15daqiqadan ortiq vaqt davomida vaqtı-vaqtı bilan xonani shamollating. Xonani shamollatganingizda deraza va eshikni bir paytda olib qo'ying.

② Uy, ofis kabi odatiy joylarni doimo toza saqlab, qo'l tegadigan joylarni haftasiga 1martadan ko'p dezinfeksiya qiling.

- Telefon, pult, eshik dastalari, stol, o'rindiq tutqichlari, elektr o'chirgichlari (выключатель), klaviatura, sichqoncha, kserokopiya kabilar

③ Jamoat joylari kabi ko'p odamlar tashrif buyuradigan joylardagi qo'l tegadigan joylar va umumiy tarzda foydalaniladigan buyumlarni har kuni dezinfeksiya qilish talab etiladi.

- Tez-tez qo'l tegadigan joylar: lift tugmachalari, kirish-chiqish eshigi, dastalar, tutqichlar, o'rindiq tutqichlari, elektr o'chirgich kabilar

- Umumiy foydalaniladigan buyumlar: aravacha kabilar

④ Dezinfeksiya ishlari amalga oshirilganda dezinfeksiyalovchi mahsulotning ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan tavsiyalar (foydalanish usuli, miqdori kabilar) ga amal qiling.

- Dezinfeksiyalovchi vositalar: dezinfeksiyalovchi salfetka, spirt (etil 70%), gipoxlorit natriy (xlor)

(5-qoida) Masofa uzoqlashsa ham, ko'ngillar yaqinlashadi.

Sababi: Barchamizning harakatimiz va hamjihatligimiz orqali koronavirus kasalligini yenga olamiz. O'zaro g'amxo'rlik qilib, bir-birimizni yupatgan holda birgalikda harakat qiladigan jamiyatni yaratish lozim.

① Yig'ilib ko'rishilmasada yaqin insonlaringizdan tez-tez xabar oling.

② Jamoa uchun o'zaro birdamlik va bo'lishish hissini saqlagan holda, COVID-19 kasalligiga chalingan bemorlar, karantinni o'tayotgan shaxslarni kamsitishga qarshilik qilish kerak.

③ Muhtoj va kuchsiz qatlardagi insonlarga g'amxo'rlik qilish lozim.

④ Shubhali ma'lumotlarning manbasini aniqlash, noaniq bo'lgan mish-mishlarni tarqatmaslik, ommaviy axborot vositalarini haddan ziyod kuzatishdan saqlanish talab etiladi.

